O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

Sitora Eshnorova Sirojiddin qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika institut talabasi

ANNOTATSIYA. Ushbu tezisda O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirishning dolzarb masalalari, uning ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish, ularni umumiy ta’lim jarayoniga jalb etish, ta’lim muassasalarida qulay muhitni shakllantirish hamda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish masalalari tahlil qilingan. Inklyuziv ta’limni tashkil etishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar keltirilgan. Tezisning asosiy maqsadi inklyuziv ta’limni takomillashtirish orqali barcha bolalar uchun sifatli va teng ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘llarini asoslashdan iborat.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, alohida ta’lim ehtiyojlari, teng imkoniyat, ta’lim sifati, pedagogik yondashuv, ijtimoiy integratsiya, maxsus pedagogika.

Bugungi kunda dunyo tez sur’atlar bilan o‘zgarib bormoqda. Shu bilan birga, ta’lim tizimi ham eng muhim va dolzarb masalalardan biriga aylandi.Ayniqsa , inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish zamonaviy ta’lim siyosatining eng ustuvor yo’nalishlaridan biridir.O’zbekiston so’nggi yillarda inklyuziv ta’limga ehtiyoji bor bo’lgan bolalarni ta’lim jarayonlariga jalb etish va ular uchun qulay pedagogik , ijtimoiy muhit yaratish borasida turli xil muhim islohotlar olib borilmoqda . Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ammo ushbu yo’nalishda malakali pedagog kadrlarni tayyorlash va zamonaviy ta’lim metodlarini joriy qilish kabi

Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari

masalalar o’z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Hozirda inklyuziv ta’limni joriy qilish nafaqat alohida ta’lim olishga ehtiyoji bor bo’lgan bolalarning bilim olishiga, balki ularning ijtimoiy faolligini ham oshirishga muhim rol o’ynaydi .

Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalarning teng huquq va imkoniyatlar asosida bilim olishlarini ta’minlashga xizmat qiladi.”Inklyuziv ta’lim “ atamasi fransuzcha “inclusif” so’zidan kelib chiqqan bo’lib “ o’z ichiga oladi” deb tarjima qilinadi va barcha insonlarning, ularning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy, iqtisodiy yoki boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, jamiyat hayotiga to'liq va teng huquqli jalb etilishini anglatadi.. Bu shuni anglatadiki , maxsus ehtiyojlari bor bo’lgan va sog’lig’i cheklnamagan odamlarning birgalikda ta’lim olishini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim barcha bolalarning individual xususiyatlari, jismoniy va aqliy imkoniyatlari, ijtimoiy kelib chiqishi hamda ta’lim ehtiyojlaridan qat’i nazar, teng sharoitlarda sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan tizim hisoblanadi. Xususan , UNESCO tomonidan 2017-yilda nashr etilgan “A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education” nomli qo‘llanmada “Har bir o‘quvchi muhim va teng darajada muhimdir” tamoyili ilgari surilgan [1]. Ushbu qarash inklyuziv ta’limning asosiy falsafasini ifodalaydi. Ya’ni har bir bola o‘zining individual xususiyatlaridan qat’i nazar, sifatli ta’lim olish va o‘z qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Shuningdek, 2006-yil 13-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 24-moddasida nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olish huquqi belgilangan. Unda ta’limning barcha bosqichlarida kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, zarur pedagogik yordam va moslashtirilgan sharoitlarni yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [2] . Inklyuziv pedagogika bo‘yicha taniqli tadqiqotchilardan biri Lani Florian ham mazkur yo‘nalishda muhim ilmiy izlanishlar olib borgan. Olimning 2016-yilda taqdim etilgan “Inclusive Pedagogy in Scotland: From Theory to Practice” nomli ilmiy materialida inklyuziv pedagogikaning nazariy

asoslari va Shotlandiya ta’lim tizimidagi amaliy tajribasi yoritilgan [3].Lani Florian yondashuviga ko‘ra, inklyuziv ta’limning asosiy vazifasi ayrim o‘quvchilar uchun alohida va boshqalardan farqli ta’lim tashkil etish emas, balki barcha bolalarning umumiy ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratishdan iborat. Bunda o‘qituvchi har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishi, ta’lim metodlarini takomillashtirishi va o‘quvchilarning imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik yondashuvlardan foydalanishi lozim.Nogironlarni umumta’lim tizimida o‘qitish masalalariga e’tibor berish Respublikamizda 1996 yilda O‘zbekiston RespublikasiXalq Ta’limi Vazirligi, Respublika ta’lim markazi va YuNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda respublika seminari o‘tkazilishi bilan islohotlar amalga oshirila boshladi. Shundan boshlab olimlar , maxsus ta’lim tizimidagi xodimlar va umumta’lim muassalarining rahbarlari nogironlar ta’limi ehtiyojiga qaratilgan munosabatlar o’zgara boshladi . o’zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash , o’qitish va kasb- hunarga jalb qilish masalalari davlat siyosatining dolzarb yo’nalishalridan biri hisoblanadi .Chunki O’zbekistonda aholining ko’makka muhtoj aholisini qo’llab quvvatlash muhim hisoblanadi. Inklyuziv ta’limni rivojlantirish jarayonida bir qator tashkiliy, pedagogik va ijtimoiy muammolar uchraydi. Birinchi navbatda, barcha ta’lim muassasalarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilgan infratuzilmaning yetarli emasligi dolzarb masalalardan biridir.Shu bilab bir qatorda, pedogog kadrlarning inklyuziv ta’lim bo’yicha kasbiy malakasi yetmasligi bilan bog’liq.Har bir o’qituvchi turli ehtiyoji bor bolalar bilan ishlashda individual yondashuvni qo’llashi va o’quvchining imkoniyatlarini to’g’ri baholay olish imkoniyatiga ega bo’lishi kerak. Buning uchun pedagoglar uchun maxsus ko’nikma kurslari , seminarlar va amaliy mashg’ulotlar tashkilashtirish maqsadga muvofiq bo’ladi. Ammo yana bir muammo shundaki jamiyatda inklyuziv ta’limga nisbatan yetarli tushuncha va ijobiy munosabatning shakllanmaganligi bilan bog‘liq. Ayrim hollarda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga nisbatan noto‘g‘ri qarashlar va stereotiplar uchrashi mumkin.

Bu esa ularning ijtimoiylashuvi va ta’lim jarayonidagi faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ota-onalar, pedagoglar va keng jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish hamda targ‘ibot ishlarini kuchaytirish lozim. Bundan tashqari, inklyuziv ta’limni rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ham samarali natija beradi. Masalan, audio darsliklar, subtitrli videomateriallar, elektron o‘quv resurslari va moslashtirilgan ta’lim platformalari turli ehtiyojlarga ega bolalarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, barcha bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va jamiyatda faol ishtirok etishini ta’minlashga xizmat qiladi. Uning asosiy maqsadi faqat alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni umumiy ta’lim muassasalariga jalb etish emas, balki har bir bolaning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladigan qulay, xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini shakllantirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. UNESCO. *A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education*. Paris: UNESCO, 2017.

2. Florian, L. *Inclusive Pedagogy in Scotland: From Theory to Practice*. Conference presentation, 2016.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.LexUZ manbasi